

2020-yil yanvar-mart oyida O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi, ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.

Zamonaviy iqtisodiyotda xizmatlar sohasining o'rnini, mazkur sohada iqtisodiy o'sishning asosiy omillari, aynan, yangi ilmiy bilimlar, aqliy kapital, axborot texnologiyalari, moliya sektori xizmatlari, konsalting va boshqalar shakllanishi bilan izohlanadi.

2020-yil yanvar - mart oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining jadal o'sishi yangi faoliyat turlari va investitsion imkoniyatlarning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir. Bugungi kunda kredit-moliyaviy, axborot, telekommunikatsiya, tibbiy, intellektual va ko'ngilochar xizmatlar bozorlari rivojlanmoqda.

Xizmatlar sohasi— bu korxonalar, tashkilotlar, shuningdek jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'riladi.

Mazkur soha xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

**2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra,
xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va
tashkilotlar soni

20 544
birlik

Ularning umumiy
sonidagi ulushi

64,2%


O'tgan yilning shu davriga
nisbatan o'sish sur'atlari

109,5 %

Dastlabki ma'lumotlar

2020-yil 1-aprel holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 20,5 mingtaga yetdi yoki ularning umumiy sonining 64,2 % ini tashkil etdi. 2019-yilning shu davriga nisbatan ularning o'sishi 9,5 % ga oshdi.

**2020-yil 1-aprel holatiga, xizmatlar sohasida
faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni (42,1 %) egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 8,2 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonava tashkilotlarning ulushi 5,9% ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 2,6 % ga teng bo'ldi.

Dastlabki ma'lumotlar

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 3,8 % ni tashkil etdi.

Ma'lumot uchun: 2019-yil 1-aprel holatiga, xizmatlar sohasida 18,8 mingta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan.Ularning umumiy tarkibida savdo xizmatlari - 40,8 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 7,3 %, tashish va saqlash - 6,1 %, axborot va aloqa - 3,0 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 3,5 %, boshqa turlar - 39,3 % ni tashkil etgan.

Hozirgi kunda xizmatlar sohasi xizmatlarning tabiati, ularning maqsadi, faoliyat turlari va xizmat ko'rsatish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari tufayli turli xil funktsiyalarga, manbalarga, ulanishlarga ega bo'lgan murakkab, o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy tizimdir.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari



**Xizmatlar hajmi -
2604,6
mlrd. so'm**

**Hajmning o'sishi -
502,9
mlrd. so'm**

**O'sish sur'ati -
111,1 %**

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2604,6 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 502,9 mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,1 % ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar


Ko'rsatilgan bozor xizmatlari jami hajmining o'sishidagi asosiy omil sifatida moliyaviy xizmatlar 44,4 %, ta'lim sohasidagi xizmatlar 18,0 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 16,0 %, boshqa xizmatlar 9,1 %, savdo xizmatlari 4,7 ga o'sishi hisoblanadi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga, xizmat turlari bo'yicha mutloq ta'siri, % da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlar egallaydi. Shunday qilib, 2020-yil yanvar-mart oylarida ularning ulushi 30,4 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ulushlar moliyaviy xizmatlar (20,8 %), transport xizmatlari (20,5 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha (5,1 %) qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, % da (2020-yil yanvar-mart oylarida)



Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmining bir oz oshishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 0,8 % ga yetdi. Shuningdek, yashash va ovqatlanish sohasidagi xizmatlar - 1,5 %, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar -1,7 %, ijara xizmatlari - 2,3 %, shu bilan birga, kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari - 2,3 % ni tashkil etib, ularning jami xizmatlar tarkibidagi ulushlari nisbatan past ekanligi qayd etildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**
(2020-yil yanvar-mart oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	2 604,6	111,1
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	133,3	116,0
Moliyaviy xizmatlar	541,3	144,4
Transport xizmatlari	534,8	101,9
shu jumladan:		
avtotransport xizmatlari	520,8	102,3
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	39,9	95,5
Savdo xizmatlari	790,7	104,7
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	80,2	103,2
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	114,6	118,0
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	45,4	90,2
Ijara xizmatlari	60,2	103,5
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	59,2	103,4
Shaxsiy xizmatlar	119,4	99,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	20,0	91,5
Boshqa xizmatlar	65,6	109,1

Innovatsion texnologiyalarni joriy etish va an'anaviy xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha aniq maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish ishlab chiqarilgan bozor xizmatlari hajmini oshishiga olib keladi.


Dastlabki ma'lumotlar

Davlatning iqtisodiy siyosatida axborot va aloqa xizmatlari (mobil aloqa, Internet, raqamli televidenie va boshqalar) kabi zamonaviy xizmat turlarini, shuningdek zamonaviy moliyaviy xizmat turlarini (bank xizmatlari, lizing, sug'urta, audit, konsalting va boshqalar) rivojlantirish alohida ahamiyatga ega.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, 2019-yil yanvar-mart oyiga nisbatan % da (2020-yil yanvar-mart oylarida)

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (144,4 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (118,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (116,0 %) shuningdek, boshqa xizmatlarda (109,1 %), qayd etildi.

Nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (90,2 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (91,5 %), yashash va ovqatlanish sohasidagi xizmatlarda (95,5 %), kuzatildi.



Savdo - bu tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.


2020-yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi savdo xizmatlarining ulushi 30,4 % ni tashkil etib, bu 790,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlari hajmi 119,6 mlrd. so'mga oshdi.

Savdo xizmatlari tarkibi, %da (2020-yil yanvar-mart oylarida)

Chakana savdo xizmatlari umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rt-dan uch qismiga aniqrog'i 85,6 % ga to'g'ri keladi.

2020-yil yanvar-mart oyida ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 7,5 % ga yetdi.



Dastlabki ma'lumotlar

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 6,9 % ni tashkil etdi.

Zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish uchun shart-sharoitlar yaratishda, innovatsion bank texnologiyalarining joriy etilishi orqali chakana xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan "raqamli" banklar va ularning bo'linmalari faoliyatini tashkil etish, masofadan turib bank xizmatlarini takomillashtirish va to'lov tizimini yanada rivojlantirish, moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.


Moliyaviy xizmatlar

(2020-yil yanvar-mart oylarida)



2020-yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 541,3 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 187,3 mlrd. so'mga oshdi. Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 44,4 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 89,4 % ni tashkil etadi. Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 3,1 % oralig'ida qayd etildi.



Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiy moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi 7,5 % ni tashkil etadi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi, moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida, kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari dasturiy ta'minotini ishlab chiqish hamda keng interfaol xizmatlarni taqdim etishni o'z ichiga olgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sektori tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2020-yil yanvar-mart oylarida)



**Xizmatlar hajmi-
133,3 mlrd. so'm**




**2019- yil yanvar-mart
oylariga nisbatan o'sish
sur'ati - 116,0 %**



**Xizmatlarning jami
hajmidagi ulushi - 5,1 %**

2020-yil yanvar-mart oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 133,3 mlrd. so'm darajasida belgilandi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati 116,0 % ga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 5,1 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da (2020-yil yanvar-mart oylarida)



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 97,0 % ni tashkil etdi.	Shuningdek, joriy davrda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy hajmda kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 0,7 %, nashriyotchilik xizmatlari – 1,5 %, axborot sohasidagi xizmatlar - 0,5 % va boshqa aloqa xizmatlari - 0,3 %ni tashkil etdi.
--	---

Ta'lim tizimining rivojlanishi O'zbekistondagi eng muhim ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bu sohada amalga oshirilayotgan tub islohotlar, avvalo, inson ongi va fikrlashidagi ijobiy o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlaydi va uning ma'naviyatini yuksalishiga imkoniyat yaratadi.

Bugungi kunda o'quv jarayonining sifati va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy laboratoriyauskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va yangi avlod metodikmateriallari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2020-yil yanvar-mart oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 114,6 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 4,4 % ni tashkil etdi. 2019-yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 118,0 % ni tashkil etdi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2020-yil yanvar-mart oylarida)

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 95,5 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 4,3 mlrd. so'mga oshdi va 39,9 mlrd. so'mga yetdi.



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar umumiy hajmda oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 89,8 % bilan ustunlik qiladi.

2020-yil yanvar-mart oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 10,2 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash tizimini yanada takomillashtirish, tibbiyot xodimlari mehnatini rag'batlantirish, zamonaviy texnologiyalar va davolash usullarini keng joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Bugun respublikaning barcha hududlarida ixtisoslashtirilgan ilmiy va amaliy tibbiyot markazlarida kardiologiya, jarrohlik, ko'z mikroxirurgiyasi, urologiya, terapiya va tibbiy rehabilitatsiya, endokrinologiya, pulmonologiya va ftiziologiya, akusherlik va ginekologiya, pediatriya va boshqa sohalarda yuqori sifatli tibbiy xizmatlar ko'rsatilmoqda.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2020-yil yanvar-mart oylarida)

2020-yil yanvar-mart oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 7,9 mlrd. so'mga oshdi va 45,4 mlrd. so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 90,2 % ni tashkil etdi.



Ma'lumki, xizmatlar sohasining rivojlanishdarajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

2020-yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 831,2 ming so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,9 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi - 831,2 ming so'm

2019-yil yanvar-mart oylariga nisbatan



Dastlabki ma'lumotlar

2020-yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi


	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Andijon viloyati	2 604,6	111,1
Shaharlar:		
Andijon	1 309,9	117,1
Xonobod	32,9	104,1
Tumanlar:		
Oltinko'l	80,3	106,2
Andijon	129,3	106,5
Baliqchi	109,2	104,8
Bo'ston	26,8	104,7
Buloqboshi	65,3	104,9
Jalaquduq	81,4	105,1
Izboskan	113,0	106,1
Ulug'nor	18,6	103,6
Qo'rg'ontepa	107,3	105,0
Asaka	155,0	106,9
Marhamat	81,3	106,0
Shahrixon	148,5	106,3
Paxtaobod	86,3	105,2
Xo'jaobod	59,6	104,6

Dastlabki ma'lumotlar

Hududning ijtimoiy-iqtisodiy holati ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasini aks ettiradi, ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot hajmini (YaHM) xarakterlaydi va hududning byudjet imkoniyatlari va pul oqimlarining hajmini belgilaydi, shu jumladan, xizmatlar sohasining rivojlanishini aks ettiradi.

2020-yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng katta hajmi Andijon shahrida (1309,9 mlrd. so'm) qayd etildi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan shahar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati 117,1 % ni tashkil etdi.

2020-yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari %




Shu bilan birga, eng yuqori o'sish sur'atlari Asaka tumani (106,9 %), Andijon tumani (106,5 %) va Shahrixon tumanlarida (106,3 %) qayd etildi.

Uncha yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Xo'jaobod tumanida (104,6 %), Xonobod shahrida (104,1 %) va Ulug'nor tumanida (103,6 %) kuzatildi.

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida eng yuqori ulushlarni Andijon shahri (50,3 %), Asaka (6,0 %), Shahrixon (5,7 %) va Andijon tumanlari (5,0 %) egallaydi.

2020-yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida shahar va tumanlarning ulushi %



Hududlar o'rtasida eng kichik ulushlar Ulug'nor (0,7 %), Bo'ston (1,0 %), Xonobod shahri (1,3 %) va Xo'jaobod tumanlariga (2,3 %) to'g'ri keladi.

2020-yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 831,2 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 108,9 % ni tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkich hududlar o'rtasida Andijon shahrida 2958,8 ming so'mdan, Ulug'nor tumanida 312,6 ming so'mgacha oraliqni tashkil etadi.

2020-yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga ko'rsatkichlar, ming so'm

	Hajmi, ming so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Andijon viloyati	831,2	108,9
<i>Shaharlar:</i>		
Andijon	2958,8	114,9
Xonobod	772,5	102,2
<i>Tumanlar:</i>		
Oltinko'l	453,9	103,9
Andijon	492,6	104,2
Baliqchi	546,7	102,7
Bo'ston	372,9	102,6
Buloqboshi	459,8	103,0
Jalaquduq	439,5	103,4
Izboskan	477,2	103,9
Ulug'nor	312,6	101,7
Qo'rg'ontepa	498,4	103,0
Asaka	475,0	104,8
Marhamat	471,5	104,0
Shahrixon	498,1	104,0
Paxtaobod	449,2	103,2
Xo'jaobod	542,9	102,3

O'tgan yilning shu davriga nisbatan aholi jon boshiga xizmatlarning jami hajmi 147,0 ming so'mga oshdi.

Respublikada xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining o'sib borayotgan to'lov qobiliyati va imtiyozlariga, xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, ayniqsa zamonaviy xizmat turlariga bo'lgan iste'molchilar talabini qondira oladigan kichik biznesning rivojlanishiga bog'liqdir.

Boshqacha qilib aytganda, bir tomondan, xizmatlarni ishlab chiqarish hajmiga uy xo'jaliklari daromadlari va imtiyozlar, xizmatlarga tariflar, boshqa tomondan - investitsiyalar, soliq, pul-kredit va davlat siyosati, ilmiy-texnik siyosat, shuningdek kichik biznesning rivojlanishi kabi omillar ta'sir qiladi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

74-224-82-63